

**DAVLAT BOSHQARUVIDA SUN'iy INTELEKTDAN FOYDALANISH
ISTIQBOLLARI****Maxmudov Ibrohimjon Iqboljon o'g'li***TDYU Ommaviy huquq fakulteti 3-bosqich talabasi E-pochtasi :
i6385241@gmail.com Tel: +998 99 037 18 45*

Anotatsiya: Maqolada sun'iy intellekt (SI)ning davlat boshqaruvidagi potensiali va keljakdagi qo'llanilish masalalari muhokama qilinadi. SI, yirik ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan algoritmlar yordamida foydalanuvchilarga axborot taqdim etuvchi dasturiy ta'minot sifatida ishlaydi. Ushbu texnologiya davlat boshqaruviga qo'llanilishi kutilmoxda, bu esa davlat xizmatlarini optimallashtirish, resurslarni samarali taqsimlash, fuqarolar murojaatlarini tizimlashtirish va xodimlar kompetensiyasini nazorat qilishda yordam beradi. Maqolada O'zbekistonning SI sohasida amalga oshirilayotgan islohotlari, shuningdek, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Xitoyning SI ni davlat boshqaruvida qo'llash tajribalari keltirilgan. Sun'iy intellektni davlat boshqaruvida joriy etish bo'yicha barcha darajalarda samarali ishlatish uchun ishlab chiqilgan nazariyalar va amaliy yondashuvlar ta'kidlanadi. O'zbekistonda SI ni tartibga solish va rivojlanirishga oid qadamlar, shu jumladan, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash va mutaxassislarini tayyorlash masalalari ko'rib chiqiladi. Maqola, SI ni davlat boshqaruvida muvaffaqiyatli qo'llash uchun jahon tajribasiga tayanib, ehtiyojkorlik bilan yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, davlat boshqaruvi, raqamlashtirish, optimallashtirish.

Hozirda barcha soha vakillarini kelgusidagi ishning keljagini qiziqtirmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida esa sun'iy intellekt sohalarga jadal kirib borayotganligi ko'rsatilmoqda. Bu sohalar qatorida davlat boshqaruvida ham foydalanilishi ehtimoldan holi emas.

Sun'iy intellekt o'zi nima? U qanday ishlaydi va u rostdan ham kelgusida davlat boshqaruvida foydalaniladimi? Ushbu savollarga aniq javobga berish uchun avvalo sun'iy intellektni ishlash mexanizmlarini tushunishimiz kerak. Sun'iy intellekt bu yirik ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan algoritmlar orqali foydalanuvchining istak va talabidan kelib chiqib axborot taqdim etuvchi dasturiy ta'minot.

Kelgusida SI davlat boshqaruvida ham faol qo'llanilishini hech kim inkor eta olmaydi. Birinchi navbatda hozirgi rivojlanish tendensiyalarga qaraydigan bo'lsak, SI albatta bir kun to'liq barcha sohalarga kirib boradi. Mamlakatimizda ham SI sohasida rivojlanishlar kundan kunga ortib bormoqda.

Prezidentimiz tomonidan 358-sonli qaror orqali SI ni tartibga solish hamda rivojlanirish uchun topshiriqlar belgilandi. Shuningdek, davlat boshqaruvida SIdan jahon tajribasi asosida foydalanish masalasi kun tartibiga qo'yildi. 2024- yilning 13-avgustdagagi yig'ilishda aynan SI bo'yicha strategiyani va 2 yillik davlat dasturini ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlarni berdi. Bu ham sohani kelgusida davlat boshqaruvida

ham qo'llanilishini isbotidir. Qolaversa Davlatimiz rahbari tomonidan rivojlangan ilg'or davlatlarga tashriflar chog'ida SI bo'yicha bir qancha tajribalarni davlatimizda tadbiq etish bo'yicha ham kelishuvlar imzolamoqda. Shu yilning 14- yanvar sanasida BAAga davlat tashrifi chog'ida Shavkat Mirziyoyev SI vaziri bilan sohaga doir bir qancha kelishuvlar imzoladi. Bular asosan BAA bilan hamkorlikda SI ni O'zbekistonda rivojlantirish masalalariga ta'luqlidir.

Jahon tajribasiga qaraydigan bo'lsak, hozirda SI dan davlat boshqaruving qaysi sohalariga qo'llash bo'yicha turli loyihibar amalga oshirilmoqda. Masalan, Yevopa Ittifoqida Yevropa Parlamenti va Kengashning 2024/1689-sonli regulyatsiyasi 2024-yil 13 iyunda qabul qilindi. Ushbu norma kelgusida vujudga keladigan barcha munosabatlarni tartibga solishda qo'llanilishi nazarda tutilgan. Ushbu normaning birinchi qism 58-qismida davlat boshqaruvida SI dan foydalanishni tartibga solish masalasi qonuniy asoslari keltirib o'tilgan. Ushbu normaning 59-moddasiga qaraydigan bo'lsak, ushbu norma "sun'iy intelektda ma'lumotlarni qayta ishlashda davlat boshqaruvi sohasida samaradorlik va sifat ko'rsatkichlarini oshirish maqsadidagina ruxsat beriladi" deb bayon etiladi. AQShda esa Federal Budget va boshqaruv Boshqarmasi tomonidan 2020 yilda SI dan foydalanishda tartibga soluvchi M-24-10 Memorandumi imzonaldi. Ushbu norma asosida davlat boshqaruvida SI dan foydalanish standart talablari yaratildi. Shtatlar esa o'z qonunchiligidagi ushbu norma asosida bir qancha ishlarni olib bordilar.

Yevropa Ittifoqi davlatlari davlat boshqaruvida quyidagi sohalarga SI ni jalb qilish masalalarini ko'rib chiqmoqchi:

1. SI dan tibbiyot sohasida davlat boshqaruvini tadbiq etishda. SI orqali har bir fuqaroda mavjud kasalliklar bazasi yaratish orqali davlat tomonidan ajratilishi kerak bo'lgan mablag'larni hisoblaydi. Resurslarni taqsimlashda boshqaruvchiga tegishli ma'lumotlardan kelib chiqib yechimni taqdim etadi.

2. SI dan fuqarolar murojaatlarini tartibga solish. Davlat boshqaruvida hozirda eng ko'p vaqtini oluvchi protses bu fuqarolarning murojaatlari hisoblanadi. Buni esa SI ni yordamida tizimlashtirish. Buning uchun boshqaruvchi tomonidan ma'lum vaqtini murojaatni tegishli organ bo'yicha taqsimlashga ketadigan vaqtini kamaytiradi.

3. Qonunchilik bilan ishlashda qonun normalarini doimiy yangilashda. SI yordamida qonunlarni tizimlashtirish va qo'llash jarayonida xatoliklarni oldini olish osonlashishi mumkin. Shu sababdan davlat boshqaruvida qaror qabul qilishdagi qonundan chetga chiqish xollari kamayadi.


4. SI yordamida kelgusida davlat boshqaruvi hodimlarini kasbiy kompetentligini nazorat qilish va xodimlarni boshqarishda foydalanish masalasi. Kelgusida ishslash sifatiga qarab SI tomonidan xodimlarni analiz qilish, ulardagi kamchiliklar xaqida xabardor qilish tizimi ishlab chiqish masalasi ko'rilmoxda.

Bundan tashqari SI dan jahonda turli davlat boshqaruvi sohalarida foydalanimoxda. Masalan, AQShdagagi Boshqaruv va budget boshqarmasi tomonidan barcha shtatlarda majburiy SI savodxonligiga ega bo'lgan xodimlarni yollash topshirig'ini berdi. Shuningdek, AQShda Turbotax dasturiy ta'minoti soliq sohasini

tartibga solishda birinchilardan bo'lib SI dan foydalandi. Bunda SI yordamida shaxslarning soliqlari avtomatik xisoblanadi va kerakli qarzdorlik bo'yicha xat yuboriladi. O'z navbatida xodimlarning vaqtini va resursslarni samaradorligini oshiruvchi omildan biri bo'ladi.

Davlat boshqaruvida SI dan smarali foydalanishda bir qancha olimlar tomonidan ishlar olib borilmoqda. Bu o'z navbatida turli nazariyalar va bahsli mavzularga sabab bo'lmoqda. SI dan foydalanish biz o'laganchalik faqatgina kompyuter savodxonlik darajasi bilan cheklanmaydi. Bu sohani tartibga solishda albatta boshqa insonga bo'g'liq bo'lgan ta'sirlar ham, unga bog'liq bo'lmaydigan ta'sirlar ham mavjudligini inobatga olish kerak. Kanada davlat boshqaruvi jurnalida Genevieve David tomonidan davlat boshqaruvidagi SI dan foydalanishni 3 bosqichga bo'luvchi nazariyasini taqdim etdi. Ushbu nazariya quyidagi jadval asosida to'liq tushunishimiz mumkin.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES FOR PUBLIC ADMINISTRATION



43

Ushbu jadvalda keltirilgan boshqichlarni birma bir taxlil qilinsa:

1. Micro bosqich. Ushbu bosqichda davlat xizmatchisi o'ziga tegishli bo'lgan vazifalar, qaror qabul qilish jarayonida foydalanishi ko'zda tutiladi. Masalan, davlat xizmatchisi kundalik individual vazifalarini bajarish jarayonida SI dan foydalanish orqali unumidorlik va sifat ko'rsatkichlarini oshirishi hatto yangi boshqichga chiqarishi mumkin. SI da mavjud ma'lumotlar va algoritmlardan foydalangan holda o'zi uchun maqbul eng optimal yechimni tanlab uni amalga oshiradi. Ushbu bosqichda bir qancha yutuq va kamchiliklarga ega. Davlat xizmatlarini standartlashtirish, qaror qabul qilishdagi noprofessionallikni kamayishi, muntazam nazorat kabi yutuqlarga ega bo'lsa ham, ixtiyoriy vakolatlarda susayish, davlat xizmatlarida savodxonlik darajasini past ekanligi, qaror qabul qilishda xali ham inson faktori mavjudligi kabi kamchiliklarni inkor etib bo'lmaydi.

2. Meso bosqich. Ushbu bosqich albatta davlat tashkilotlari orasida yoki tashkilotda SI dan foydalanish masalasini tartibga soladi. SI dan ushbu bosqichda

⁴³ Artificial intelligence : opportunities and challenges for Public administration by Genevieve David 21.09.2024 Canada

albatta yirik miqdordagi ish yuklamalarini kamaytirishda foydalanish mumkin. Misol uchu, ushbu bosqich sifatida Toshkent shahar hokimligini oladigan bo'lsak. Tashkilotda doimiy bo'layotgan jarayonni hokim qiyinchiliksiz nazorat qilib borishi, kerakli joylarda topshiriqlarni berishi mumkin. Albatta bu jarayonda tashkilotda barchaning qilayotgan ishlari optimal SI dan foydalanishi sababli shaffof bo'ladi. Ushbu bosqich muammolarni tez aniqlashda nazardan chetda qolish extimoli mavjud bo'lgan masalalarni ham yaqqol namoyon eta oladi. Ushbu bosqichda tashkilotning samaradorligini oshishi, resurslarni yaxshiroq taqsimoti, mamuriy buyruqbozlikning qisqarishi kabi yutuqlarga ega. Talqin qilishni sustligi, qabul qilinishdagi muammolar va malakali kadrlar kabi kamchiliklar ham yo'q emas.

3. Macro bosqich. Ushbu bosqich hukumat darajasida raqamlashtirishda SI dan foydalanish masalasini anglatadi. Hozirda ko'plab davlatlar ushbu jarayondan ildam harakat qilmoqdalar. Masalan, Buyuk Britaniya o'z strategiyasiga ega va ushbu strategiya orqali kelgusida SI ni davlat boshqaruviga to'liq joriy etilishi kutilmoqda. Bu qanday ishlaydi degan savolning bo'lishi tabiiy aslida. Davlat hukumat darajasida nazorat qiladigan bir qancha sohalarni raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilmoqda. Masalan, SSV tomonidan barcha tarmoqni raqamlashtirilsa, kelgusida vazirlik hududlardan kelib chiqib kasalliklar uchun resurslar taqsimotini bemalol SI yordamida amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. Yoki fuqarolar tomonidan murojaatlarni ham aynan SI yordamida amalga oshirish istiqbollari hali ham mavjud.

Yoki ko'plab olimlar tomonidan sohaga doir ko'plab maqolalar mavjud. Van Noordt, Medaglia va Tangining "Siyosiy tashabbuslar, sun'iy intellektga ega hukumat uchun: Yevropadagi milliy strategiyalar tahlili" maqolasida davlat boshqaruvida sun'iy intellektning makro-asoslarini ularning strategik ustuvorliklariga qarab o'rganishni topish mumkin. Ushbu maqolada Yevropa davlatlarining doimiy tarzda davlat boshqaruvida SI dan foydalanish masalalari o'rganilmoqda. Yevropa Ittifoqida kelgusi 10 yillikda Ittifoqning barcha bosqichlariga SI joriy etilishining huquqiy me'yorlari hozirda muhokamalar jarayonida.

SI dan davlat boshqaruvida foydalanishda nafaqat g'arb mamlakatlari balki sharq davlatlari ham o'z ishlanmalarini amaliyatga joriy qilmoqdalar. Masalan, Li, Fan va Nining "Boshqaruvni raqamlashtirish : Xitoyning mahalliy boshqaruvida sun'iy intellektning rolini o'rganish" maqolasidan so'ng davlat boshqaruvining meso-darajasi Xitoya raqamli transformatsiyaning pilot shahrida (Shenchjen) amaliyatga taqdim etilmoqda. Raqamli transformatsiya kontseptsiyalari va jamoat qiymati nazariyasini birlashtirgan mualliflar ish faoliyatini yaxshilash, hamkorlikni osonlashtirish va xabardorlikni oshirishni rag'batlantirish uchun shahar hukumati sun'iy intellektdan qanday foydalanishini o'rganmoqda. Aralash usullarga asoslangan tadqiqot Shenchjendagi Pingham tumani hokimiyati va Futyam tumani hokimiyatidagi Open Data Policy Laboratoriyasining amaliy tadqiqotlarini ko'rib chiqadi. Ushbu maqolaning natijalari shuni ko'rsatadiki, hokimiyat tomonidan SI barcha sohalarga joriy etish orqali samaradorlikni oshirish mumkin. Bu huddi kompyuterlarning keng tarqalishi natijasida samaradorlik oshganiga o'xshaydi.

O'zbekiston Respublikasida ham raqamlashtirish davlat boshqaruvida SI dan foydalanish bo'yicha bir qancha ilg'or qadamlar tashlangani taqsinga sazovor. Hozirgi jahondagi rivojlanish tendensiyasidan kelib chiqadigan bo'lsak, quyidagi qadamlar yoki rejalar orqali davlatimizda ham boshqaruuv sohasida SI dan foydalanishda yuqori natijalarni olishimiz mumkin:

1. Aholining to'liq ma'lumotlar bazasini saqlovchi yirik markazni SI ga integratsiya qilish jarayonini doimiy nazorat qilish. Bu ma'lumotlarni sizib chiqishini oldini oluvchi chora bo'ladi. Davlat boshqaruvida ham ma'lumotlar havfsizligi to'liq ta'minlanadi.

2. "Umid" jamg'armasidan ajratiladigan grandlarga aynan SI sohasi bo'yicha kvotalarni oshirish. Jahonda hozirda ushbu soha vakillariga talab ortib bormoqda. Soha mutahasislari orqali kelgusida boshqaruuv kadrlarini qayta tayyorlovchi Davlat boshqaruvi akademiyasida ushbu sohani o'rgatuvchi yetuk kadrga ega bo'lish mumkin.

3. SI dan foydalanuvchilarni huquqiy tartibga soluvchi qonun va qonunosti hujjatlarni tartibga soluvchi huquqiy bazani shakllantirish. Bizning qonunchiligidiz hozirda to'liq shakllanmangan va hali ham tartibga solinishi kerak bo'lgan ijtimoiy munosabatlar talaygina.

4. Jalon tajribasidan kelib chiqib, ma'lum bir tuman yoki shaharda to'liq SI yordamida davlat boshqaruvini tashkil etuvchi modelni yaratish. Masalan, aholisi kam bo'lgan bir tuman miqyosida hududdagi barcha sohalarda raqamli texnologiya va SI dan foydalanish mumkin. Bu yuqori bosimni kamaytirib modeldagi xato va kamchiliklarni yaqqol ko'rishga yordam beradi.

SI dan davlat boshqaruvida foydalanishda qanchalik salbiy fikrlar bilidirilsa ham kelgusida zamonaviy texnologik rivojlangan davlat sifatida shakllanish uchun bugundan moslashishlik zarur. Ushbu sohada SI ni albatta me'yor bilan foydalanish foydadan holi bo'lmaydi. Jahondagi barcha davlatlar hozirda SI ni joriy etish masalasida bosh qotirmoqdalar. Ularda mavjud qonunchilik normalari asosida qonunchilikka implementatsiya qilishi, mavjud tajribalardan o'zligimizdan kelib chiqib amaliyatga tadbiq etishimiz zarur. Albatta bu sohani hali rivojlantirish uchun qilinadigan ishlar talaygina. Agar SI ni tadbiq etish hozirdan boshlansa jarayon sifatli va muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident qarori; <https://lex.uz/docs/-7158604> ;

2. Yevropa Parlamenti va Kengashning 2024/1689-sonli regulyatsiyasi-<https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/library/commission-publishes-guidelines-ai-system-definition-facilitate-first-ai-acts-rules-application> ;

3. Jenevie Devidning "Sun'iy intellekt: davlat boshqaruvi imkoniyatlari va muammolari" maqolasi. Kanada Public administration Journal. - <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/capa.12580> ;

4. Van Noordt, Medaglia va Tangining “ Siyosiy tashabbuslar, sun’iy intellektga ega hukumat uchun: Yevropadagi milliy strategiyalar tahlili ” - <https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/09520767231198411>

5. Li, Fan va Nining “ Boshqaruvni raqamlashtirish : Xitoyning mahalliy boshqaruvida sun’iy intellektning rolini o‘rganish ” maqolasi - <https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/09520767231188229>